

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

FUTUVVATNOMALAR VA ULARNING SHARQ ADABIY MEROSIDAGI O'RNI

Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tadqiqotchi.
e-mail: Surayyoxonibroximova@gmail.com .ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-3455-3128>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada futuvvatnomalarning shakllanish tarixi, janriy xususiyatlari, tasavvuf ta'limoti bilan uzviy aloqasi hamda Sharq adabiy-ma'naviy merosidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, futuvvat ta'limotining islom axloqiy qadriyatlari va tasavvuf falsafasi negizida rivojlanishi, futuvvatnomalarning nazariy hamda amaliy yo'nalishlari yoritiladi. Shuningdek, arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan futuvvatnomalar, xususan, Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomayi Sultoniya" asari hamda xalq orasida keng tarqalgan kasb-hunar risolalarining g'oyaviy-badiiy va ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: futuvvat, futuvvatnoma, javonmardlik, tasavvuf, komil inson, axloqiy-didaktik adabiyot, Sharq adabiyoti, kasb-hunar risolalari, pandnoma, tasavvufiy adabiyot.

ФУТУВВАТ-НАМЕ И ИХ МЕСТО В ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ ВОСТОКА

Иброхимова Сурайёхон Шодибек кизи

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, исследователь.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются история формирования футувват-наме, их жанровые особенности, неразрывная связь с суфийским учением, а также их место в литературно-духовном наследии Востока. Особое внимание уделяется развитию учения о футуввате на основе исламских нравственных ценностей и философии суфизма, раскрываются его теоретические и практические аспекты. Кроме того, анализируются футувват-наме, созданные на арабском, персидском и тюркском языках, в частности произведение Хусайна Воиза Кашифи «Футувват-наме-йи Султания», а также широко распространённые среди народа ремесленные рисале, с точки зрения их идейно-художественных, духовно-нравственных и просветительских особенностей.

Ключевые слова: футувват, футувват-наме, джавонмардство, суфизм, совершенный человек, нравственно-дидактическая литература, восточная литература, ремесленные рисале, панд-наме, суфийская литература.

FUTUWWAT-NAMAS AND THEIR PLACE IN THE LITERARY HERITAGE OF THE EAST

Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Researcher.

Abstract.

This article examines the historical development, genre characteristics, and the close relationship of *futuwwatnāmas* with Sufi doctrine, as well as their significance in the literary and spiritual heritage of the East. It also explores the evolution of the futuwwa tradition on the basis of Islamic ethical values and Sufi philosophy, highlighting both its theoretical and practical dimensions. Furthermore, the study analyzes futuwwatnāmas composed in Arabic, Persian, and Turkic, with particular emphasis on Husayn Voiz Koshifi's *Futuvvatnomayi Sultoniya* (*The Sultan's Book of Futuwwa*), as well as widely circulated craft treatises, focusing on their ideological, artistic, educational, and spiritual characteristics.

Keywords: futuwwa, *futuwwatnāma*, *javonmardlik* (spiritual chivalry), Sufism, the perfect human (*al-insān al-kāmil*), ethical and didactic literature, Eastern literature, craft treatises, *pandnāma* (books of moral instruction), Sufi literature.

Kirish. Islom sivilizatsiyasi doirasida futuvvat ta'limotining shakllanishi va rivojlanishi bevosita tasavvufning ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir. Garchi futuvvatning ayrim axloqiy tamoyillari islomdan avvalgi arab jamiyatida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, islom dini ta'sirida mazkur tushuncha yangi diniy-falsafiy mazmun kasb etdi. Tasavvuf mutafakkirlari futuvvatni nafsni poklash, ixlos, tavoze, saxovat, fidoyilik va Alloh rizosini ko'zlab insonlarga xizmat qilish kabi yuksak fazilatlarini o'zida mujassam etgan ma'naviy kamolot yo'li sifatida talqin qildilar. Shu tariqa futuvvat tasavvufning muhim axloqiy-amaliy tamoyillaridan biriga aylandi.

Futuvvat ta'limotiga ko'ra, umrini insonlarga, xususan, do'stlar va jamiyat manfaatiga xizmat qilishga bag'ishlagan, ezgulikni hayotining bosh mezonini deb bilgan, doimo yaxshilik qilishga intilgan, saxovatli, halol, mard va oliyanob insonlar futuvvatdchilar yoki javonmardlar deb e'tirof etilgan. Ularning asosiy maqsadi shaxsiy manfaatni emas, balki boshqalarning farovonligi va manfaatini ustun qo'yish, muhtojlarga ko'mak berish, adolat va mehr-oqibat tamoyillariga amal qilishdan iborat bo'lgan. Tasavvufiy manbalarda javonmardlik insonning nafaqat jasorati yoki jismoniy qudrati, balki yuksak axloqi, pok niyati, fidoyiligi va Haq yo'lidagi sobitqadamligi bilan belgilanadi. Shu bois futuvvat ta'limotida javonmard shaxs komil insonning ma'naviy-axloqiy namunasi sifatida talqin qilinadi [1:3].

Tasavvufga oid manbalarda futuvvat tariqati va uning ma'naviy-ma'rifiy maslagi mohiyatini ochib berishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu manbalarda futuvvat nafaqat axloqiy fazilatlar majmui, balki insonning ruhiy kamoloti, komillikka erishish yo'lidagi ma'naviy-amaliy tizim sifatida talqin etiladi. Futuvvat ta'limotining asosiy maqsadi inson qalbini ma'naviy poklash, unda saxovat, mardlik, halollik, kamtarlik, bag'rikenglik, fidoyilik va adolat kabi yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishdan iboratdir. VIII asrdan boshlab tasavvufga oid manbalarda "futuvvat" tushunchasi alohida ma'naviy-axloqiy kategoriya sifatida shakllana boshlaydi [2]. Dastlab arab jamiyatida mardlik, saxovat, olijanoblik va jasorat kabi fazilatlarini anglatuvchi ushbu atama keyinchalik so'fiy mutafakkirlar tomonidan chuqur falsafiy va irfoniy mazmun bilan boyitildi. Aynan VIII asrdan e'tiboran tasavvuf namoyandalari futuvvatni insonning ichki poklanishi, nafsni tiyish, ixlos, fidoyilik va Allohga muhabbat orqali komillikka erishish yo'li sifatida talqin qila boshladilar.

Ilk tasavvufiy risolalarda futuvvat shaxsning nafaqat tashqi xulq-atvorini, balki uning ruhiy-ma'naviy kamolotini belgilovchi muhim mezon sifatida izohlanadi. So'fiylar nazarida haqiqiy futuvvat o'z manfaatini emas, balki boshqalarning manfaatini ustun qo'yish, insonlarga beg'araz xizmat qilish, sabr-toqat, tavoze', saxovat va adolat tamoyillariga sodiq qolish orqali namoyon bo'ladi. Shu tariqa futuvvat oddiy axloqiy tushunchadan tasavvufning muhim nazariy va amaliy tamoyillaridan biriga aylandi.

Keyingi asrlarda futuvvat g'oyalari tasavvufiy adabiyot, axloqiy-didaktik asarlar va maxsus futuvvatnomalar orqali yanada rivojlanib, Sharq musulmon xalqlari ma'naviy tafakkurining ajralmas qismiga aylandi. Natijada futuvvat tasavvufda komil insonni tarbiyalash, jamiyatda ezgulik va adolatni qaror toptirish hamda insonlar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi yuksak ma'naviy ta'limot sifatida e'tirof etildi. Arab sayyohi Ibn Battuta (XIII asr) "**Sayyohatnoma**" asarida shunday yozadi: "Men dunyoni kezib bunday odamlar (jvonmardlar yoki futuvvatdchilar)dan ko'ra ezgu niyatli va ezgu fikrli kishilarni ko'rmadim. Sheroz va Isfahon aholisi garchi o'zlarini futuvvatdchilarga o'xshatsalar-da, ammo ular (Xorazm va Movarounnahr javonmardlari) g'arib-musofirlarni siylash va mehmondo'stlikda ulardan baland turadilar. Jvonmardlarni Iroqda shotir, Xurosonda sarbador, Mag'ribda sukra deydilar. Ularga tobe joylarda adolat rasmi shunday rivojlanganki, ularning lashkargohlari, xonalarida oltin va kumush tangalar yerga sochilib yotadi va egasi topilmaguncha hech kim bu pullarga tegmaydi" [1:5].

MATERIALLAR VA METODLAR. Futuvvat ta'limotiga oid arab va fors tillarida yaratilgan manbalar nihoyatda boy va serqirra bo'lib, ularda futuvvatning nazariy asoslari, axloqiy tamoyillari hamda javonmardlik odoblari batafsil yoritilgan. Ayniqsa, futuvvatnomalar, pandnomalar, axloqiy-didaktik asarlar va tasavvufga bag'ishlangan risolalarda javonmardlarning fazilatlarini, ularning ijtimoiy va ma'naviy burchlari, kasb odobi, insonlar bilan muomala madaniyati hamda ruhiy kamolotga erishish yo'llari keng bayon etiladi. Ushbu manbalarda javonmardlik faqat mardlik va jasorat timsoli sifatida emas, balki saxovat, halollik, fidoyilik, tavoze', sabr, bag'rikenglik va insonparvarlik kabi yuksak axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan ma'naviy-axloqiy tizim sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, mashhur pandnomalar va tasavvufiy risolalarda futuvvat ahlining rasm-rusumlari, odob-axloq qoidalari, murid va pir o'rtasidagi munosabatlar, birodarlik tamoyillari hamda komil insonni tarbiyalash masalalari alohida o'rin egallaydi. Mazkur asarlar futuvvat ta'limotining shakllanishi va rivojlanish tarixini o'rganishda, uning Sharq ma'naviy tafakkuridagi o'rni va ahamiyatini aniqlashda muhim manba sifatida xizmat qiladi. XV asrda Hirotida yashagan mashhur tojik yozuvchisi Husayn Voiz Koshifiyning "**Futuvvatnomai sultoniy**" risolasi bu ilmning ko'p qoidalarini qamrab olgan, sodda va ravon tilda yozilganligi bilan ajralib turadi. **"Futuvvatnomai sultoniy"**da javonmardlik ilmi, dasturi, qoidalari bilan birga tasavvuf haqida ham ko'p fikrlar bor. Bir so'z bilan aytganda, Voiz Koshifiy futuvvatni tasavvufning bir bo'lagi sifatida talqin qilgan [1:5]. Bu bejiz emas, negaki, futuvvat bilan tasavvuf g'oyalari aksar hollarda bir-biriga muvofiq kelgan.

Xalifa Nosir axloqiy va diniy kitoblardagi futuvvat qoidalarini Shahobiddin Suhravardiyga bir tuzuk holda jamlashni buyuradi. Mazkur asarga ham "**Futuvvatnoma**" nomi beriladi [3].

Dastlabki futuvvatnomalar asosan arab va fors tillarida yaratilgan bo'lib, ular futuvvat ta'limotining nazariy asoslari, axloqiy tamoyillari hamda javonmardlik odoblarini yorituvchi muhim manbalar hisoblanadi. Keyinchalik mazkur an'ana usmonli turk adabiyotida ham davom etib, turkiy tilda yozilgan futuvvatnomalar vujudga keldi. Bu esa futuvvat ta'limotining islom olamining turli hududlariga keng tarqalganini va uning turli xalqlar ma'naviy hayotiga chuqur singib borganini ko'rsatadi.

NATIJALAR. Turkiy futuvvatnomalar orasida Yahyo ibn Halil ibn Shubon al-Burg'oziyning "**Futuvvatnoma**" asari alohida ahamiyatga ega. Muallif asar muqaddimasida kitobni yozish jarayonida foydalangan manbalari haqida batafsil ma'lumot beradi. Uning ta'kidlashicha, franklarning Iskandariyani bosib olishi davrida qo'lga kiritilgan qo'lyozmalar

orasidan tafsir, hadis, qissalar, manonib hamda tasavvufga oid qimmatli asarlar xarid qilingan. Ana shu manbalar, xususan, **"Tazkirat ul-avliyo"**, **"Asos ul-orifin"**, manonib kitoblari va futuvvatga oid boshqa risolalar muallif uchun asosiy ilmiy manba vazifasini o'tagan.

Shuningdek, Yahyo ibn Halil ibn Shubon al-Burg'oziy o'z asarini yaratishda Naqqosh Ahmadning **"Tuhfat al-vasoyo"**, Fariddiddin Attorning **"Tazkirat ul-avliyo"** hamda Jaloliddin Rumiyning **"Masnaviy"** asarlaridan keng foydalanini qayd etadi. Bu holat futuvvat ta'limotining tasavvuf, axloq va irfon adabiyoti bilan uzviy bog'liqligini yaqqol namoyon etadi [4].

Muallif Rum o'lkasida xalqning asosiy muloqot tili turkiy bo'lganligi sababli asarni aynan turkiy tilda yozganini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir musulmonning komillik yo'lida unga rahnamolik qiluvchi shayxi bo'lishi zarur, chunki shayxsiz kishi ma'naviy yo'ldan adashishi mumkin. Burg'oziy futuvvatning bosqichlarini ramziy tarzda izohlar ekan, yigit, axiy va shayx tushunchalarini yagona ma'naviy kamolot jarayonining ketma-ket pog'onalari sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, yigitlik – futuvvat yo'lga kirish, axiylik – ushbu yo'lda sobitqadamlik bilan kamol topish, shayxlik esa ma'naviy yetuklik va komillik maqomiga erishish bosqichidir. Mazkur qarashlar futuvvatni nafaqat axloqiy me'yorlar majmui, balki tasavvufiy tarbiyaning izchil va mukammal tizimi sifatida baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, ilmiy manbalar va futuvvatga oid risolalar tahlili shuni ko'rsatadiki, **"futuvvatnoma"** atamasi ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchi ma'noda u futuvvat ta'limotining nazariy va amaliy asoslarini, shuningdek, tasavvufiy sulukning odob-axloq me'yorlarini bayon etuvchi axloqiy-didaktik risolalarni anglatadi. Ikkinchi ma'noda esa muayyan kasb egalari, hunarmandlar yoki javonmardlar jamoasining ichki nizomi, faoliyat dasturi va odob qoidalarini belgilovchi amaliy qo'llanma sifatida talqin etiladi.

MUHOKAMA. Birinchi ma'noda futuvvatnomalar keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy risolalar bo'lib, ularda futuvvatning mohiyati, komil inson fazilatlarini, pir va murid munosabatlari, nafsni poklash, saxovat, halollik, tavoze', sabr, mardlik va insonparvarlik kabi yuksak axloqiy qadriyatlar izchil yoritiladi. Bunday asarlar tasavvuf ta'limotining muhim tarkibiy qismi sifatida insonni ma'naviy kamolot sari yetaklash, uning ruhiy olamini yuksaltirish hamda jamiyatda ezgulik va adolat tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan futuvvatnomalar umumiy axloqiy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan didaktik risolalar hisoblanadi.

Ikkinchi ma'noda esa futuvvatnoma muayyan kasb yoki ijtimoiy guruhning ichki nizomi va faoliyat dasturini ifodalovchi amaliy qo'llanma vazifasini bajaradi. Bunday asarlarda javonmardlar, axiyar va hunarmandlar uyushmalarining tashkil etilishi, a'zolikka qabul qilish tartibi, ustoz-shogird munosabatlari, kasb odobi, mehnat madaniyati, jamoa a'zolarining huquq va majburiyatlari, o'zaro yordam, birodarlik va hamjihatlik tamoyillari batafsil bayon etiladi. Mazkur ma'nodagi futuvvatnomalar o'rta asrlarda hunarmandchilik uyushmalari va axiyarlik tashkilotlarining ma'naviy-axloqiy hamda tashkiliy faoliyatini tartibga soluvchi muhim hujjat vazifasini o'tagan.

Demak, futuvvatnomalar bir tomondan tasavvuf va axloq falsafasining nazariy manbasi bo'lsa, ikkinchi tomondan javonmardlar va axiyar jamoasining ijtimoiy hayoti, kasbiy faoliyati hamda odob-axloq me'yorlarini tartibga soluvchi amaliy dastur sifatida muhim ilmiy va tarixiy ahamiyat kasb etadi [5].

Birinchi toifadagi futuvvatnomalarga Husayn Voiz Koshifiyning **"Futuvvatnomayi Sultoniya yoxud Javonmardlik tariqati"** asari yorqin misol bo'la oladi. Mazkur risola futuvvat ta'limotining nazariy asoslari, javonmardlikning ma'naviy mohiyati, komil inson fazilatlarini hamda tasavvufiy odob-axloq me'yorlarini tizimli ravishda yoritgan muhim manbalardan biridir. Asarda futuvvatning asosiy tamoyillari – saxovat, mardlik, halollik, tavoze', fidoyilik, sabr-toqat va insonparvarlik kabi fazilatlar Qur'on oyatlari, hadisi shariflar hamda tasavvufiy qarashlar asosida izohlanadi. Shu bois ushbu asar futuvvat ta'limotining nazariy-falsafiy mohiyatini o'rganishda asosiy manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Ikkinchi toifadagi futuvvatnomalarni esa xalq orasida keng tarqalgan, muallifi noma'lum bo'lgan kasb-hunar risolalari tashkil etadi. Jumladan, **"Nurnoma"**, **"Risolai bofandalik"**, **"Risolai sartaroshlik"**, **"Risolai dehqonchilik"**, **"Risolai temirchilik"** va boshqa o'nlab risolalar ana shunday amaliy futuvvatnomalar sirasiga kiradi. Mazkur risolalarda muayyan kasb-hunarning paydo bo'lish tarixi, uning pirlari va ustozlari silsilasi, kasbning jamiyatdagi o'rni, kasb egasining axloqiy burchlari hamda mehnat jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan odob qoidalarini batafsil bayon etilgan. Shuningdek, ularda kasb faoliyati davomida o'qiladigan Qur'on oyatlari, duolar va diniy-irfoniy nasihatlar ham keltirilgan bo'lib, bu holat kasb-hunar faoliyatining nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy-ma'rifiy mazmunga ham ega bo'lganini ko'rsatadi.

Kasb risolalarini muntazam o'qish va undagi pand-nasihatlariga amal qilish har bir fatiy yoki javonmard uchun muhim ma'naviy burch hisoblangan. Chunki bu risolalar orqali shogirdlar o'z kasbining kelib chiqishi, ustozlar silsilasi, kasbiy odob-axloq me'yorlari va javonmardlik tamoyillarini chuqur o'zlashtirganlar. Ustozlarni ehtirom bilan yod etish, kasbning sir-asrorlarini puxta egallash hamda mehnatni halol va vijdonan bajarish futuvvat ta'limotining ajralmas qismi sifatida talqin etilgan.

O'zbek adabiyoti tarixida ayniqsa kasb-hunar uyushmalari faoliyatini tartibga solishga xizmat qiluvchi amaliy futuvvatnomalar keng tarqalgan. Ushbu asarlar ko'pincha risola shaklida yaratilgan bo'lib, ularda muayyan kasbning asoschisi sanalgan pir va ustozlar zikri, kasbning sharafi va fazilati, shogirdning ustoz oldidagi burchlari hamda kasbiy odob-axloq qoidalarini izchil bayon etilgan. Xalq orasida o'qilgan bunday risolalar odatda **"Nurnomai sharif"** bilan boshlanib, undan keyin kasbga oid maxsus risolalar mutolaa qilingan. Bu an'ana kasb-hunar egalari nafaqat kasbiy malakasini, balki ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ham ta'minlashga xizmat qilgan. Shu tariqa futuvvatnomalar o'zbek xalqining kasb madaniyati, ma'naviy qadriyatlari va javonmardlik an'analarini avloddan avlodga yetkazuvchi muhim yozma manbalar sifatida alohida ilmiy va tarixiy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Futuvvatnomalar Sharq xalqlarining ma'naviy va adabiy merosida muhim o'rin tutuvchi axloqiy-didaktik

manbalar hisoblanadi. Ular futuvvat ta'limotining nazariy asoslarini, javonmardlik g'oyalarini hamda komil insonni tarbiyalashga xizmat qiluvchi yuksak axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan futuvvatnomalar nafaqat tasavvufiy tafakkurning rivojlanishini aks ettiradi, balki kasb-hunar odobi, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy kamolot masalalarini ham yoritadi. Shu jihatdan futuvvatnomalarni o'rganish Sharq adabiyoti, tasavvuf va o'zbek ma'naviy merosining uzviy bog'liqligini anglash, shuningdek, milliy axloqiy qadriyatlarning tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Koshifiy H. V. *Futuvvatnomai sultoniyyoxud javobmardlik tariqati*. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994. – 112 b.
2. *Fütüvvet* [Elektron resurs] // *İslâm Ansiklopedisi*. – URL: <https://islamansiklopedisi.org.tr/futuvvet>.
3. Neşet Çağatay. *Fütüvvet – Ahi Müessesesinin Menşei Meselesi*. – Ankara: Yeni Matbaa, 1952. – 74 s.
4. Abdulkaki Gölpınarlı. *Burgâzî ve Fütüvvetnâmesi*. – İstanbul, 2008. – S. 85.
5. *Zabihullo Safo*. Ta'rixi adabiyot dar Eron. – J. 2. – Tehron: Firdavs, 1373. – S. 18.